

Bundan buyon "BUYURTMACHi" deb ataluvchi Amu-Surxon ITXB xuzuridagi nasos stantsiyalari va energetika boshkarmasi nomidan «NIZOM» asosida faoliyat olib boruvchi boshligi A.Abduraimov bir tomondan va bundan buyon "Ish Bajaruvchi" deb ataluvchi «ELEREM MOTOR TAMIR» MChJ nomidan «NIZOM» asosida faoliyat olib boruvchi rahbari A.Dexqonov ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Buyurtmachi" xizmatlarni qabul qilish va to'lash, "Ish Bajaruvchi" esa Buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha quyidagi xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi:

№	Xizmatlar nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Birlik uchun shartnoma narxi	Shartnomaning umumiy qiymati (bitim summasi)
1	Sherabod n/st.dagi № 5 agr. 7500 kVt 375 ob/min elektrodvigateleni joriy ta'mirlash ishlari	dona	1	196607489.00	196607489.00
	jami				196607489.00

1.2. Shartnomaning umumiy summasi 196607489.00 (Bir yuz to'qson olti million olti yuz etti ming to'rt yuz sakson t o'qqiz) so'm 00 tiyin (QQS bilan) tashkil qiladi.

1.3. Xizmat ko'rsatishni boshlash va tugatish muddati: Boshlanishi: "09" fevral 2022y. Tugashi: "28" fevral 2022y.

2. HISOB-KITOBLAR TARTIBI

2.1. "Buyurtmachi" mazkur shartnomani g'aznachilik organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kalendar kuni ichida qonunchilikka muvofiq shartnoma umumiy summasidan 30% miqdorida oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan so'ng 90 kalendar kuni ichida qabul qilish dalolatnomasi, hisob-faktura v.b. asosida to'laydi.

2.2. Xizmat ko'rsatish yakunlangandan keyin "Xizmat ko'rsatuvchi", "Buyurtmachiga" bajarilgan ishlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini taqdim etadi.

2.3. "Buyurtmachi" dalolatnoma va unga ilova qilingan boshqa hujjatlarni olgandan keyin 5 bank ish kuni ichida imzolangan dalolatnomani yoki xizmatlarni qabul qilishni asosli ravishda rad qilish xatini "Xizmat ko'rsatuvchiga"ga yuboradi.

2.4. Rad qilingan holatda, ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilishni asosli ravishda rad qilinishi yuzasidan kamchiliklarni bartaraf etish ro'yxati va muddati bo'yicha tomonlar o'rtasida dalolatnoma tuziladi.

3. SHARTNOMANING BAJARILISHI

3.1. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va shartnoma talablari va shartlariga muvofiq ijro etilishi shart.

3.2. Shartnomaning shartlarini bajarishni bir tomonlama rad qilish yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama tartibda o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida o'rnatilgan hollar bundan mustasno.

3.3. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

3.4. Buyurtmachining roziligi bilan xizmatlar muddatidan avval ko'rsatilishi mumkin.

3.5. Ko'rsatilgan xizmatlar bevosita Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar miqdori va ularning sifati ko'rsatiladigan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1. Buyurtmachi:

- shartnoma O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi;
- xizmat ko'rsatuvchi bilan shartnoma tuzish yoki xizmat ko'rsatuvchi bilan shartnoma tuzishni rad etish muddatiga rioya etilishi (ajratilgan byudjet mablag'lari kamayishi holatlari bundan mustasno);

4.2. Ko'rsatilgan xizmatlarni tanlab olmaslik, shuningdek xizmat ko'rsatuvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni xizmatlari ko'rsatganda, xizmatlari qabul qilib olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga qabul qilib olinmagan (o'z muddatida qabul qilib olinmagan) xizmatlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Qabul qilib olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, xizmat ko'rsatuvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu ishlar bajarilganligining kafolatlarini taqdim etgan holda, qabul qilib olinmagan (o'z muddatida qabul qilib olinmagan) xizmatlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

4.3. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida xizmatlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Bajarilgan xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.4. Ish Bajaruvchi:

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan xizmatlarni ko'rsatish muddatlari va joyi bo'yicha yetkazib beruvchi buyurtmanomalar shartlarining buyurtmachi buyurtmanomalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;
- tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

4.5. Agar ko'rsatilgan xizmatlar standartlar, sifati, texnik shartlar, qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi xizmatlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, xizmat ko'rsatuvchidan sifati lozim darajada bo'lmagan xizmatlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, xizmatlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati lozim darajada bo'lmagan xizmatlar ko'rsatganligi uchun jarima xizmat ko'rsatuvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.6. Xizmatlarni ko'rsatish muddati o'tkazib yuborilgan yoki ko'rsatilmagan hollarda Xizmat ko'rsatuvchi Buyurtmachiga har bir o'tkazib yuborilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyalarning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshiga yo'l qo'yilmaydi. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani tegishli tarzda bajarish va xizmatlar ko'rsatish muddatini o'tkazib yuborilishi yoki ko'rsatilmasligi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita xo'jalik sudiga murojaat qilishga haqlidir.

5.3. Tomonlar iqtisodiy sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi xo'jalik sudida ko'rib chiqiladi.

6. FORS-MAJOR

6.1. Ushbu shartnomaga asosan majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar natijasida vujudga kelganda tomonlar o'z majburiyatlarini bajarilmaslikdan qisman yoki to'liq ozod bo'ladilar.

6.2 Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlariga tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar kiradi.

6.3 Shartnoma tomonlaridan qaysi biri uchun majburiyatlarni yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari sababli bajarilmaslik ma'lum bo'lsa, darhol ikkinchi tomonga bu xaqda 10 kun ichida ushbu holatlar harakati sababini dalillar bilan taqdim etishi lozim.

6.4 Shartnomaga asosan majburiyatlarni ijro qilish muddati ushbu yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar davom etish muddatiga qadar uzaytiriladi. Agar yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) ta'siri 60 kundan ortiqroq davom qilsa, tomonlar tashabbusiga binoan shartnoma bekor qilinishi mumkin.

7. BOSHA SHARTLAR

7.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Mazkur shartnoma g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingan vaqtdan kuchga kiradi va 2022 y. "31" dekabr gacha amal qiladi.

8.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra 1 (bir) oy davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblarni tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

8.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

9. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

"ISH BAJARUVCHI"	"BUYURTMACHI"
<p>Tashkilot nomi : «ELEREM MOTOR TAMIR» MChJ</p> <p>Manzil: Toshkent viloyati Angren shahri Yangiobod-5</p> <p>Telefon: +99899-119-94-76</p> <p>Faks:</p> <p>STIR kodi: 308 149 764</p> <p>OKED: _____</p> <p>X/R 20 208 000 705 336 928 001</p> <p>Bank: ATB "AGRO" bank Buyayda filiali,</p> <p>MFO: 00525</p> <p>Raxbar (direktor): A.Dexqonov _____ (imzo)</p> <p>M.O' _____</p>	<p>Tashkilot nomi: Amu-Surxon ITXB xuzuridagi nasos stantsiyalari va energetika boshkarmasi</p> <p>Manzil: Termiz shaxri Yoshlik kuchasi, 8-uy</p> <p>Tel/faks: 0376 221-22-74, 221-26-87</p> <p>STIR kodi: 200475210</p> <p>OKED: 01613</p> <p>Buyurtmachining G'azna shaxsiy hisobvarag'i: 100021860224017042402170005</p> <p>G'aznachilik nomi: Surxondaryo viloyati Faznachiligi</p> <p>G'aznachilik bo'linmasi INN raqami: 201122919</p> <p>Yagona G'aznachilik hisobvaraqlari (YaGH): 2340200030010001010, MFO: 00014.</p> <p>Bank: XKEM AB, Toshkent sh BB</p> <p>Raxbar (direktor): A. Abdulraimov _____ (imzo)</p> <p>M.O' _____</p>

Xuquqshunos vizasi: Men NSva ED _____ xuquqshunosi, ushbu shartnomaga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari talablariga mos kelishligini aniqladim:

G. Sadarova
(F.I.Sh.)

E. yulze.
(imzo)

«9» ok 2022 yil
(sana)